



### CHEK TILLARINI O'QITISHDAGI METODLAR: NAZARIYA VA AMALIIYOT UYG'UNLIGI

**Hafizov Najmiddin Abdurashidovich**

*Renessans ta'lim universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrası  
arab tili fani assistent o'qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933127>

Chet tillarini o'qitish uslublari bu – til o'rganishda foydalaniladigan nazariy va amaliy yondashuvlar to'plamidir. Har bir metod o'ziga xos yondashuvga ega bo'lib, talabalar ehtiyoji, maqsadlari va til o'rgatish muhitiga qarab tanlanadi.

Zamonaviy jamiyatda chet tillarini o'rganish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Axborot almashinuvi, ilm-fan, texnologiya, biznes va turizm kabi sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun chet tilini bilish muhim omilga aylangan. Buning natijasida til o'rganish metodlariga bo'lgan e'tibor ham ortdi. Ta'limda metodik yondashuvlar faqat bilim berish vositasi emas, balki o'rgatuvchi va o'rganuvchining faol muloqoti, tilga bo'lgan munosabat va motivatsiyasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Har bir metod o'z davrining ehtiyojlariga ko'ra yaratilgan bo'lib, ularning qo'llanilishi til o'rgatish samaradorligini belgilab beradi. Bugungi globallashuv davrida chet tillarini bilish zamonaviy inson uchun zarur ko'nikmaga aylangan. Ayniqsa, ingliz, nemis, fransuz, koreys yoki xitoy tillariga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Shu sababli, chet tillarini samarali o'qitish va o'rganish muhim masalaga aylangan. Til o'rganish jarayonida turli xil metod va yondashuvlar qo'llaniladi. Har bir metod o'zining maqsadi, vositalari va natijalari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada chet tillarini o'qitishdagi asosiy metodlar tahlil qilinadi va ularning afzallik hamda kamchilik jihatlari yoritib beriladi.

Quyida mashhur bo'lgan asosiy metodlar, ularning o'ziga xosligi, afzalliklari, kamchiliklari va zamonaviy ta'limdagi roli haqida fikr yuritiladi.

**1. Grammatika-tarjima metodi (GTM).** Bu metod asosan yozma tilni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, klassik tillarni (lotin, yunon) o'rgatishdan meros qolgan. Unda til qoidalari yodlanadi va matnlar ona tiliga tarjima qilinadi. O'quvchilar ingliz tilidagi maqolani o'qib, uni o'zbek tiliga tarjima qiladi va har bir grammatik qoidani alohida yozib chiqadi. Bu uslubning qulayliklari sifatida aytish mumkinki, grammatik bilimlar chuqur o'zlashtiriladi, tarjimonlikka tayyorlov uchun foydali bo'ladi. **Kamchiliklari esa** amaliy muloqot ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi va monoton darslar motivatsiyani pasaytirishi mumkin.



**2. To'g'ridan-to'g'ri metod (Direct Method).** Bu uslubda ona tilidan foydalanilmaydi. Grammatika kontekstda, ya'ni misollar orqali tushuntiriladi. So'zlashuv va tinglashga katta urg'u beriladi. "This is a pen" kabi jumlar tasvirli karta yordamida tushuntiriladi, tarjima qilinmaydi. Qulayliklari tilni tabiiy o'rganishga yordam beradi va so'zlashuv qobiliyati tez shakllanadi. **Kamchiliklari esa nazariy grammatikani tushunish qiyinlashadi hamda boshlang'ich bosqichda tushunmovchilik bo'lishi mumkin.**

**3. Audiolingval metod.** Bu metod ikkinchi jahon urushi davrida harbiy tarjimonlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan. Unda takrorlash, audio yozuvlar va dialoglar asosiy o'rin tutadi. Talabalar "Where are you from?" savoliga avtomatik tarzda "I am from Uzbekistan" javobini berishga o'rgatiladi. **Afzalliklari** talaffuz va tinglashni kuchaytiradi. Strukturaviy fikrlashga o'rgatadi. **Kamchiliklari** esa ijodiy muloqot rivojlanmaydi. Faqat yodlashga asoslangan bo'ladi.

**4. Kommunikativ metod (Communicative Language Teaching).** Bunda asosiy e'tibor – muloqot qilishga, ya'ni tilni hayotda ishlatish qobiliyatiga qaratiladi. Real holatlar asosida ishlanadi. Restoranda ovqat buyurtma qilish, do'konda savdolashish, intervyuda qatnashish kabi roliklar ishlatiladi. **Afzalliklari** tirik tilni o'rgatadi. O'rganuvchi markazda bo'ladi. **Kamchiliklari** grammatik bilimlar yuzaki bo'lishi mumkin hamda darsni rejalashtirish ko'proq vaqt talab qiladi.

**5. Tabiiy yondashuv (Natural Approach).** Bunda o'rganish bolalar tilni qanday o'zlashtirsa, shunday yo'l bilan olib boriladi. Dastlab tinglash, so'ng gapirish, so'ng yozish bosqichma-bosqich qo'llaniladi. Boshlang'ich darslarda talabalar hech qanday grammatik qoidalarsiz faqat tinglaydi va tushunganlarini aytib beradi. **Afzalliklari** stresssiz va muloqotga tayyorlovchi uslub hisoblanadi. Muloqotga asoslangan fikrlashni shakllantiradi. **Kamchiliklari** esa grammatikani tushunish biroz kechikadi. Nazorat qilish qiyinroq bo'ladi.

**6. Vazifaga asoslangan o'rganish (Task-Based Learning).** O'quvchilar real hayotdagi topshiriqlarni bajarish orqali til o'rganadilar. "Chet elga sayohat qilish uchun onlayn chiptani band qilish" vazifasi ka'bi topshiriqlar beriladi. **Afzalliklari** hayotiy ko'nikmalar shakllanadi. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi. **Kamchiliklari** darsni baholash murakkab bo'ladi hamda har doim ham sinfdagi barcha talabaga mos bo'lmasligi mumkin.

**Quyida chet tillarini o'qitish metodlarining taqqoslovchi jadvali berildi. Bu ham chuqur bilib olish o'qitish ko'nikmasini oshiradi.**

Metod nomi	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
<b>Grammatika-tarjima</b>	Grammatikani qoidalar asosida o'rgatish, tarjima	Grammatikani chuqur tushuntiradi	Og'zaki nutq rivojlanmaydi



Metod nomi	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
	qilish		
<b>To'g'ridan-to'g'ri metod</b>	Darsda faqat o'rganilayotgan til ishlatiladi, grammatikani kontekstda o'rganish	So'zlashuv ko'nikmasini rivojlantiradi	Grammatikani tushinishda qiyinchilik bo'lishi mumkin
<b>Audiolingval metod</b>	Takrorlash, dialoglar, avtomatlashtirish	Tinglash va talaffuzni rivojlantiradi	Ijodiy fikrlashni cheklaydi
<b>Kommunikativ yondashuv</b>	Real hayotiy muloqotga asoslanadi	Muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi	Grammatikani kam o'rgatishi mumkin
<b>Tabiiy yondashuv</b>	Dastlab tinglash, keyin so'zlash, stresssiz o'rganish	Tabiiy va bosqichma-bosqich o'rganiladi	Natija sekinroq paydo bo'ladi
<b>Vazifaga asoslangan o'rganish</b>	Real vazifalar orqali tilni o'rganish (masalan, mehmonxona band qilish)	Tilni hayotda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi	Har doim nazorat qilish va rejalashtirish oson emas
<b>Sug'urib olish (Suggestopedia)</b>	Musiq va qulay muhit orqali o'rgatish, stressni kamaytirish	Yod olishni osonlashtiradi	An'anaviy muhitda qo'llash qiyin
<b>Jim yo'l (Silent Way)</b>	O'qituvchi kam so'zlaydi, talabalar faol bo'ladi	Mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi	Har doim tushunarli bo'lmasligi mumkin

**Yuqoridagi zamonaviy metodlarga qo'shimcha qilib texnologik yondashuvni ham keltirib o'tish joiz bo'ladi.** Bugungi kunda metodlardan qat'i nazar, zamonaviy **axborot texnologiyalari** (AI, mobil ilovalar, interaktiv platformalar, videodarslar, virtual sinflar) chet tilini o'rganish samaradorligini keskin oshirmoqda. Duolingo, Quizlet, Memrise, BBC Learning English kabi platformalar turli metodik yondashuvlarga asoslangan vositalarni taqdim etadi. Shu tariqa, texnologiyalar barcha metodlarni qo'llab-quvvatlovchi kuchli vositaga aylangan.

**Xulosa qilib aytish mumkinki,** chet tillarini o'rganishda yagona mukammal metod mavjud emas. Har bir metod o'zining afzallik va kamchiliklariga ega. Eng samarali natijaga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi, maqsadlari va o'quv muhitini hisobga olgan holda turli metodlarni kombinatsiyalash (aralashtirish) orqali darsni olib borishi lozim. Tilni faqat grammatika orqali emas, balki muloqot, tinglash, o'qish va yozish faoliyatlarini birlashtirib o'rganish samaradorlikni oshiradi.

Chet tillarini o'qitish bir xil yondashuv orqali emas, balki **kombinatsiyalangan** metodlar orqali samarali bo'ladi. Har bir o'quvchi individual ehtiyoj va qobiliyatlarga ega. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni hisobga olish lozim:

1. O'quvchining yoshi, darajasi va maqsadlariga qarab metod tanlash.
2. Grammatikani muloqot bilan uyg'unlashtirish.
3. Interaktiv texnologiyalarni qo'llash (audio, video, ilovalar).



4. Muloqotga asoslangan topshiriqlarni ko'paytirish.
5. Har bir metodning afzalliklaridan maqsadli foydalanish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.
4. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
5. O'zbek tilshunosligi va xorijiy tillar metodikasi bo'yicha ilmiy maqolalar (TDIU, O'zMU nashrlari).